



Raqs LAMI



2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI



Bernora
Qoriyeva

JAHON BALET SAN'ATINING YULDUZI

Iqtidorli balerina, bir qator davlat mukofotlari laureati, milliy baletimiz targ'ibotchisi, birinchi o'zbek balerinas Bernora Qoriyeva Toshkentda san'atkor Rahim Qoriyev oilasida 1936- yil 28-yanvar kuni dunyoga kelgan. Bolalik chog'laridan san'atga oshufta bo'lib o'sgan Bernora Toshkent xoreografiya bilim yurtida (1952-yil), Moskva opera va balet katta teatri qoshidagi akademik xoreografiya bilim yurti (1955-yil)da tahsil oladi, 1980-yilda esa Toshkent madaniyat institutini tugallaydi.

1957-yilda Moskvada bo'lib o'tgan balet tanlovida bizning qahramon ham ishtirok etib oltin medal sohibasi bo'lgan. Shundan boshlab Bernora Qoriyeva Fransiya, Angliya, AQSh, Germaniya balet truppalari bilan ishlay boshladi. "Oqqush ko'li"dagi Odetta - Odilliya, "Bog'chasaroy favvorasi"da Mariya, "Anna Karenina"da Anna kabi yuzlab bosh partiyalarni mahorat bilan ijro etgan yosh balerina tomoshabinlar sevgisini qozondi va uni o'zbek Oddetasi deb hurmat bilan atay boshladilar.

Bernora Qoriyeva klassik baletlarni mahorat bilan ijro etish barobarida o'zbek baletining poydevoriga ham katta hissa qo'shdi, u milliy baletlar "Tanovar", "Sevgi

tumori", "Sevgi va qilich", "Suhayl va Mehri" kabi o'nlab milliy baletlarda yaratgan obrazlari tomoshabinlar e'tirofiga sazovor bo'ldi. Shu bilan bir qatorda o'zbek milliy baletini dunyoga olib chiqdi va mamlakatga ulkan yutuqlar olib keldi.

Ayniqsa, "Tanovar"dagi Nurxon obrazi, undagi fojining balerina nozik harakatlari orqali mohirona aks etishi tomoshabinni ham qayg'uga ham hayratga soldi. Nurxon obrazi uchun Bernora Qoriyeva xalq artisti unvoniga sazovor bo'lgan (1973).

Bernora Qoriyeva ijodi nechog'li milliy bo'lsa, shu qadar umumbashariy, nechog'li an'anaviy bo'lsa, shu qadar zamonaviydir. U yorqin, beqiyos, o'ziga xos san'atkor sifatida Ulyanova baletlari va Turg'unboyeva raqslarining insonparvar, ma'naviy g'oyalarini davom ettirmoqda.

Yuksak iqtidor, tashkilotchilik va rahbarlik qobiliyatini o'qish va mehnat jarayonida toblantirgan yosh balerina tez orada Alisher Navoiy nomidagi opera va balet akademik teatri baletmeyster vazifasida ishlab turib mehnati, tirishqoqligi tufayli 1985-1998 yillarda O'zbekiston teatr arboblari uyushmasi raisi, 1994-2002-yillarda Alisher Navoiy nomidagi opera va balet akademik teatri direktori va badiiy rahbari lavozimlarida ishlagan. O'zining mehnatsevarligi, tashkilotchiligi, insoniyligi va jozibaliligi uni "Dunyo ayoli" nomini haqli ravishda olishiga sabab bo'ldi. Turmush o'rtog'i sog'liqni saqlash fidoyisi, yetuk shifokor va odil

rahbar Qulmuhammad Rizayev turmush o'rtog'ining qiziqishlarini, iqtidorini hurmat qilib san'atda yuksalishiga, milliy baletning rivojlanishida hissa qo'shishida har tomonlama qo'llar edi. Aytishdi-ku, oila xotirjam bo'lsa san'atkor xotirjam ishlaydi-deb. Bernora Qoriyevaning ulkan yutuqlarida turmush o'rtog'i, oilaviy muhit albatta katta o'rin tutadi.

Rahbarlik, mas'uliyatli ishlar B.Qoriyevaning ijoddagi ishlaridan hech ham chalg'itgani yo'q aksincha, Bernora katta asarlarda bosh qahramonlar obrazini katta mahorat bilan yaratishda davom etdi. Uning 85-yillik yubileyiga (2021) shaxsan Prezidentimizning yuborgan tabriklari katta e'tirofdir.

O'zbekiston Davlat xoreografiya akademiyasida yoshlarga bilim berish bilan bir qatorda, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston davlat akademik Katta teatri ham bir qancha shogirdlarga balet san'ati sirlaridan saboq berib kelmoqda. O'zining ulug' yoshiga qaramay o'zbek baleti qirolichasi-prima balerina hayot yo'llari, g'ayratlari yoshlarga o'rnakdir.

Durdona Ubaydullayeva,
"San'atshunoslik" ta'lim yo'nalishi,
3-kurs talabasi

USHBU SONDA

Bernora
Qoriyeva

UZEYIR
HOJIBEYOV
-ATOQLI BASTAKOR

SAN'ATGA
BAXSHIDA UMR
Roza Iskandarova
80 yoshda

SAN'ATSHUNOS
KIM?

Milliy raqs
MILLATNING O'ZLIGI

TUG'ILGAN YERDAN KO'NGIL UZILMAS
YURT QO'RIGANNING YURTI BUZILMAS



Ona Vatan! Nima uchun Vatanni ona so'zi bilan yonma-yon ishlatamiz? Chunki, Vatan ham onamiz singari aziz, mehribon va qadrlidir.

Yurtda vatanni sevadigan, ardoqlaydigan va himoya qiladigan mardlar bor ekan shu yurt doimo yuksalaveradi, yashnayveradi. Mustaqillik yillarida yurtimizda davom etayotgan moddiy va ma'naviy taraqqiyot asosida tinchlikni saqlash, rivojlantirish va xalqimiz turmush darajasini yanada yuksaltirish borasida ulkan ishlar qilindi. Shu ishlar doirasida 1992-yil 14-yanvar kuni mustaqil davlatimiz tarixida yana bir muhim voqea yuz berdi. Xuddi mana shu kun Respublikamiz Qurolli Kuchlari tashkil topdi. 1993-yildan e'tiboran 14-yanvar yurtimizda "Vatan himoyachilari kuni" deb e'lon qilindi. Bu yil Respublikamiz Qurolli Kuchlari tashkil topganiga 32 yil to'ldi va yurtimizning har bir hududida keng miqyosda nishonlandi.

Joriy yilning 12-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil topganiga 32 yil to'lishi munosabati bilan

Milliy raqs MILLATNING O'ZLIGI

akademiyamizda ham bu tantana o'zgacha ko'tarinki ruhda boshlandi. Unda O'zbekistonning birinchi Mudofaa vaziri, general-polkovnik Rustam Ahmedov, general-mayor Feruz Usmanov, general-mayor Kasimoli Ahmedov hamda Mudofaa vazirligining Markaziy harbiy orkestri, O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi 81109 — harbiy qism kursantlari, O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari markaziy ashula va raqs ansambli xonandalari ishtirok etishdi.

Tadbir avvalida akademiya tarixida ilk marotaba harbiy orkestr tantanavor musiqalar bilan faxriy mehmonlarni kutib olishdi. Bu yilgi tantana takrorlanmas, vatanparvarlik ruhida, vatanni madh etuvchi kuy-qo'shiqlar bilan birgalikda harbiy chiqishlar tadbirga o'zgacha shukuh bergan bo'lsa, akademiyaning raqqos va raqqosalarining ijrolari esa unga bezak bo'ldi, desam mubolag'a qilmagan bo'laman.

Yakunda Mustaqil O'zbekistonning birinchi Mudofaa vaziri, general-polkovnik Rustam Ahmedov o'zining xotiralari bilan yig'ilgan talaba va mehmonlar bilan bo'lishdi. Harbiy soha va raqs sohasi vakillari azaldan bir-biriga yaqin tartib-intizomda tarbiyalanishi va deyarli xalq oldidagi xizmatlari birdek ekanligini ta'kidlab o'tdi. Shu bilan birga Tamaraxonim, Mukarrama Turg'unboeva, Galiya Izmailovalar buyuk shaxslar ekanligi hamda sohada yetishib chiqayotganlar ularning munosib davomchilari bo'lishimiz kerakligi aytib o'tdi.

Zoir O'roqov,
"San'atshunoslik" ta'lim yo'nalishi
4-kurs talabasi

Raqs — san'at. U tuyg'ularni harakat va holatlarda, imo-ishoralarda ifodalaydiki, hayratlanmay iloj yo'q. Oddiy harakatlarga jon baxsh etib, badiiy obraz yaratish orqali raqs asari yaraladi. O'zbek milliy raqsi o'zining jozibasi, go'zalligi, maf-tunkorligi bilan ajralib turadi. Milliy raqs xalqimizning o'tmishi, buguni va ertasi, milliy o'zligi, ruhiyati va orzu-umidlari, armonlarini o'zida aks ettirgan san'at turidir.

Akademiya-mizda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Charosoy Jurabayeva rahbarligida "Xoreografiya jamoalari rahbari" ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabalarining namunaviy ochiq darsi bo'lib o'tdi.

"An'anaviy lirik ijrochilik", "Lapar janri", "Xoreografik-musiqiy kompozitsiya", "Milliy estrada janri" kabi to'rt bo'limdan iborat ochiq darsning dastlabki qismi uchga bo'lindi. Dastavval o'zbek adabiyotining yirik namoyondalarining ijodiga murojaat etildi. Sahnada yoritilib borayotgan an'anaviy lirik ijrolarning har birida ulug' siymolarning ko'rinishi va ularning g'azallari asosida yaratilgan kuy- qo'shiqlarni barcha birdek mamnuniyat bilan qarshi oldi. Mazkur asarda Hazrat Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va Fuzuliyalar talabalar tomonidan g'avdalantirildi. Ikkinchi bo'limda akademiya-miz tarixida ilk bora tobora yo'qolib borayotgan "Lapar janri" talabalar tomonidan nafaqat ijro etildi, balki targ'iboti ham olib borildi. Shu bilan birga Tamaraxonim yorqin xotirasi yodga olindi.

Jumladan, u ijro etgan "Nahori nashta", "Dilbari janon", "Ganjilari" kabi laparlar rekvizitlar yordamida ijro etildi.

Shu bilan birga, O'zbekiston xalq artisti Rahima Mazohidovaning "Yor nimalar devdim sizga" va "O'ynang qizlar" kabi laparlariga ham murojaat etildi. Uchinchi bo'limda esa "Xoreografik-musiqiy kompozitsiya"ga e'tibor qaratildi. Jozibador kuy va ohanglarga talabalar tomonidan sahnalashtirilgan raqslar namoyish etildi. Yigit va qizlar tomonidan ijro etilgan "Shodiyona" raqsi esa "Xoreografik-musiqiy kompozitsiya"ning ko'rkiga ko'rk bag'ishladi. Ochiq darsimizning to'rtinchi bo'limi "Milliy estrada janri"dagi musiqiy asarlarga yo'naltirildi. Estradamizning yorqin vakillari bo'lmish O'zbekiston xalq artistlari Ozodbek Nazarbekov, G'ulomjon Yoqubov hamda Alisher Fayz tomonidan ijro etilgan ashula va yallalarga murojaat etildi. Ularga esa guruh talabalar tomonidan go'zal raqslar sahnalashtirildi.

Ochiq darsimizning boshqalaridan farqli jihati shundaki, hozirgi kunda tobora yo'qolib borayotgan lapar janrini qayta tiklash hamda ulug' ustozlarimizdan meros bo'lgan ushbu san'at turini ustoz san'atkor Rahima Mazohidova aytganlaridek, "Xalqdan olib, xalqqa yetkazib berish" bilan bog'liqdir. Tamaraxonim ijrosida xalq og'zaki ijodi bo'lmish "Nahori nashta" lapari talabalar tomonidan kuylandi va raqs ijro etildi. Bog'lanish qismida Buxoro raqs

maktabiga murojaat etilgan holda angishvona va likopcha rekvizitlari yordamida "Dilbari janon" lapari kuylandi, raqs ijro etildi. Avjdan oldingi holatda "Ganjilari" lapariga raqs ijro etilib, qo'shiq kuylangan bo'lsa, rekvizit sifatida qayroqdan foydalanildi. Avjdagi holatga keladigan bo'lsak "Yor nimalar devdim sizga" laparida talabalar bozor ko'rinishini aks ettirdilar. Aynan mana shu qismida o'sma, atlas, kovush va kalish kabi rekvizitlardan maqsadli foydalana oldilar. Ularning har biri lapar janrini yoritib berishda keng qo'llandi. Yechim qismida esa "O'ynang qizlar" laparini talabalar jo'r bo'lib ijro etish bilan birgalikda qizlar davrasini tashkil etib, raqsga tushdilar. Bir so'z bilan aytganda, ochiq darsimizdagi "Lapar janri"ning vazifasi raqs ketma-ketligida haqiqiy laparni aks ettirish va sahnada yigit-qizlar birgalikda kuylab, raqsga tushishini ifodalash hamda tomoshabinga yetkazib bera olishdir. Mazkur janr haqiqiy tom ma'noda jamoaviy ishning hosilasi bo'ldi.

Tomoshabinlar hamda komissiya a'zolari tomonidan iliq qarshi olingan bu ijrolar ulug' ustozlarimiz qoldirgan oltin meros asarlarni muntazam ravishda yodga olib mana shunday ochiq darslarni tashkillashtirishni talabalar o'z oldilariga maqsad qilib qo'yishdi.

Sevinch Jo'raqulova,
"Xoreografiya jamoalari rahbari" ta'lim yo'nalishi
2-kurs talabasi

OTABEK MAHKAMOV BILAN IJODIY UCHRASHUV

Akademiya-mizga o'zbek kino aktyori, xalqaro CIPA dasturi doirasidagi bitiruvchi va sertifikatlangan xalqaro huquqshunos, jurnalist, bloger Otabek Mahkamov bilan "Yoshlar kelajak poydevori" mavzudagi ijodiy uchrashuv bo'lib o'tdi.

Ushbu tashrif chog'ida o'zining "Yuksaklik sari tasodif bo'lmagan 100 ta uchrashuv" nomli kitobi taqdimoti hamda qiziqarli savol-javob kechasi bo'lib o'tdi. Talaba yoshlar o'zlarini qiziqtirgan savollarga qiziqarli, dunyo olimlari, mashhur insonlar tomonidan keltirilgan sitatalardan foydalanib juda chiroyli javoblar qaytardi. Bundan tashqari men o'zim ham bu insonga biz talabalar uchun badiiy adabiyotlar tavsiya qilishini so'radim. U inson esa menga Tohir Malikning "Odamiylik mulki", Ken Kizining "Kakku uyasi uzra parvoz" va yana bir qator adabiyotlarni tavsiya qildi.

Motivatsion ruhda o'tgan uchrashuvda

Otabek Mahkamov kitobiga jamlagan 100 uchrashuvning hech biri tasodifiy emasligini, unga 50 dan ortiq davlatlarga sayohat qilganida dunyoning eng muvaffaqiyatli insonlari bilan bo'lgan tanishuvlari, har bir suhbatdosh kechinmalaridan olgan taassurotlari tahlilini, iqtiboslarni joylaganini ta'kidladi.

Bloger sifatida ham tanilgan mehmon O'zbekistonda universitet ochish maqsadi, yoshlarga motivatsiya berish, ilhomlantirish kerakligi haqidagi tavsiyalari, muvaffaqiyatli shaxs bo'lish sirlaridan biri bu — chet tili, hech bo'lmaganda ingliz tilini bilish muhimligi, inson o'zini boshqa yo'nalishlarda ham sinab ko'rishdan qo'rqmasligi, dunyoqarash o'sishi yo'lida o'qish, bilim olish, o'rganish, izlanish, eng muhimi harakatdan to'xtamaslik zarurligini



o'z hayotidagi misollarga bog'lab tushuntirganida, ochig'i hamma juda ta'sirlandi.

Tadbir so'nggida, O. Maxkamov akademiya kutubxonasi, ma'naviyat bo'limi va "Eng yaxshi savol" egasiga "Yuksaklik sari tasodif bo'lmagan 100 ta uchrashuv" kitobini taqdim etdi,

shuningdek akademiya Axborot-resurs markaziga yana bir nusxasini taqdim etdi.

Zamira Mirg'iyosova
"San'atshunoslik" ta'lim yo'nalishi
2-kurs talabasi

SAN'ATGA BAXSHIDA UMR



Joriy yilning 22-yanvar kuni akademiyamizda "Xoreografiya pedagogikasi" kafedrasida dotsenti v.b., Alisher Navoiy nomidagi Davlat Akademik Katta teatri sobiq balet solisti Roza Iskandarovaning 80 yoshni qarshilaganliklari munosabati bilan "San'atga baxshida umr" deb nomlangan ijodiy tantana bo'lib o'tdi.

Butun umrini san'atga baxsh etgan Roza Iskandarova akademiyada kechgan ko'p yillik faoliyati davomida xoreografiya sohasiga, klassik raqs san'ati rivojiga, yuqori malakali kadrlar tayyorlash va iqtidorli yoshlarni tarbiyalashda munosib hissa qo'shib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekovning Roza Iskandarovaga yuborgan tabrigini vazir maslahatchisi Shavkat Ortiqov o'qib eshittirdi hamda "Madaniyat va san'at fidokori" ko'krak nishoni va esdalik sovg'alarini topshirdi.

Shuningdek, ijodiy kechaga Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Davlat akademik katta teatrlarining balet solistlari, O'zbekiston davlat musiqali

komediya teatri artistlari, O'zbekiston davlat yosh tomoshabinlar teatri aktyorlari, Respublika xoreografiyaga ixtisoslashtirilgan maktab-internati jamoasi tashrif buyurdi.

Bayram tadbirida mehmonlar hamda akademiya professor-o'qituvchilari jonkuyar pedagog Roza Iskandarovani qutlashdi. Shu bilan birga Respublika xoreografiyaga ixtisoslashtirilgan maktab-internati, poytaxt teatrlari vakillari, shogirdlari tomonidan ijro qilingan turli raqsar kechaga yanada fayz bag'ishladi.

www.uzdxa.uz



"BAHOR" ANSAMBLI

QAYTA RIVOJLANISH YO'LIDA

Shu yilning 6 yanvar kuni Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasida "Intellektual" klubi raisi Boris Bobayev tashabbusi bilan Mukarram Turg'unboyeva xotirasiga bag'ishlangan "Bahor" ansambli vakillari bilan ijodiy uchrashuv bo'lib o'tdi.

Kutubxonaning katta zalida bo'lib o'tgan suhbatda ansamblning yaratilish tarixi va uning sayyora bo'ylab zafarli yurishi haqida hikoya qiluvchi fotoko'rgazma tashkil etildi.

"Bahor"ning shon-shuhrati butun dunyoga taraldi. U O'zbekistonning o'ziga xos tashrif qog'oziga aylandi. O'sha yillarda O'zbekiston nomi "Bahor", "Yalla" va "Paxtakor" so'zlari bilan bog'langan edi. Ansamblni tuzgan va uni tom ma'noda rejissyori bo'lgan Mukarram Turg'unboyeva o'zining ulkan ijodi bilan O'zSSR xalq artisti va SSSR xalq artisti unvonlariga, shuningdek, O'zSSR va SSSR Davlat mukofotlari laureati unvoniga erishdi.

Darhaqiqat, Mukarram Turg'unboyeva va Tamaraxonim zamonaviy o'zbek raqs san'atining rivojiga ulkan hissa qo'shishdi. Yaratilgan taniqli va betakror "Bahor" uslubiga Mukarrama Turg'unboyevaning o'zidan tortib, raqqosalar, musiqiy kompozitsiya va liboslar dizaynerlarigacha butun ansamblning mashaqqatli mehnati natijasida erishildi.

Nafis did, yoshlik va go'zalikning uyg'unligi, nafosat, ajoyib liboslar "Bahor" ansamblning o'ziga xos jihati edi. Ammo bunyod etish qiyin, tugatish juda ham oson. Bu so'zlarni bejiz tilga olmadik. Ming afsuslar bo'lsinki,

"Bahor" ansambli ham bu davrni boshidan o'tkazdi. Biroq adolat tantana qildi va Prezidentimizning "Bahor" ansamblini qayta tiklashga qarori san'at ahlini behad quvontirdi. Mazkur jamoaning tiklanishini istaganlarning birortasini ajratib ko'rsatish qiyin, ammo buning uchun raqs san'ati ixlosmandlari, hozirgi direktor Ziyoda Madrahimova, ansambl direktori Gulnora Musayeva va Yelena Qori-Yoqubovalarning xizmatlari katta.

Kutubxonada bo'lib o'tgan bu davra suhbatiga yig'ilganlar Mukarrama Turg'unboyeva sahnalashtirgan "Tanovar", "Ko'ngil Taronasi", "Katta o'yin", shuningdek,

Usta Olim Komilov sahnalashtirgan "Pilla" raqsarlarini tomosha qildilar. Afsonaviy guruh faxriylari, madaniyat arboblari tomonidan Mukarrama Turg'unboyeva va "Bahor" ansambli nomiga ko'plab iliq so'zlar yangragan bo'lsa-da, tashrif etganlarni nafaqat o'tmish, balki bugun ham qiziqitirdi.

Ayni paytda ansamblning qadim merosini asrab-avaylash uchun qator ishlar olib borilmoqda. Jumladan, raqslarni ham, liboslarni ham tiklash bo'yicha mashaqqatli ishlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, yangi raqsar sahnalashtirish ishlari olib borilmoqda.

Yangilangan "Bahor" ansambli ham yaqin kelajakda avvalgi "Bahor" kabi dunyoning ko'plab davlatlarining konsert zallarini zabt etishiga ishonamiz.

Diyorbek Amanov,
"San'atshunoslik" ta'lim
yo'nalishi
4-kurs talabasi

UZEYIR HOJIBEYOV -ATOQLI BASTAKOR



Har bir xalqning atoqli ijodkori, san'at sohasi rivojiga hissa qo'shgan, uni poydevorini ko'tarish uchun xizmat qilgan vakillari bo'ladi. Ozar xalqining etuk san'atkori Uzeyir Hajibeyovni hamma ham bilmasligi mumkin. Ammo u xalqining buyuk farzandi edi.

Uzeyir Hajibeyov ozarbayjon bastakori, ozar milliy musiqa maktabining asoschisi, yirik musiqa olimi va jamoat arbobi edi. Teatrga alohida qiziqish ko'rsatib, ozarbayjon opera san'atining poydevorini qo'ydi. Hojibeyov qishloq kotibi oilasida tug'ilgan. Uzeyir tug'ilgandan ko'p o'tmay, oila Tog'li

Qorabog'dagi Shusha shahriga ko'chib o'tdi. Bo'lajak bastakor bolaligini xalq xonandalari va sozandalari qurshovida o'tkazgan, ulardan mug'om san'atini o'rgangan. Bola xalq qo'shiqlarini chiroyli kuylardi, uning ovozi hatto fonografga ham yozilgan. 1899 yilda Hojibeyov Gori o'qituvchilar seminariyasiga o'qishga kiradi. Bu yerda u jahon madaniyati, birinchi navbatda rus tili bilan tanishdi, klassik musiqa bilan tanishdi. Seminariyada musiqa faniga katta o'rin

berildi. Barcha talabalar skripka chalishni o'rganishlari, xorda kuylashi va ansamblda ijro etish ko'nikmalarini egallashlari kerak edi. Hojibeyov daftarida xalq qo'shiqlarini mustaqil yozib o'lar, ularning soni esayildan-yilga ortib borardi. Keyinchalik, o'zining birinchi operasi ustida ishlaganda, u ushbu folklor yozuvlaridan birini ishlatgan. Hojibeyov 1904 yilda seminariyani tugatgach, Hadrut qishlog'iga o'qituvchi bo'lib ishlaydi.

Bir yil o'tgach, u Bokuga ko'chib o'tdi va u yerda o'qituvchilik faoliyatini davom ettirdi va shu bilan birga jurnalistikaga qiziqdi. Uning dolzarb mavzudagi felyeton va maqolalari ko'plab jurnal va gazetalarda chop etila boshladi. Hojibeyovning maqsadi — mug'om san'ati asosida opera asarini yaratish edi.

1908-yil 25-yanvar Ozarbayjonda birinchi milliy operaning tug'ilgan kuni bo'ldi. Uning syujeti Fuzuliyning "Layli va Majnun" poemasi bo'ldi.

Yosh bastakor operada mug'om qismlaridan keng foydalangan edi. Keyinchalik bastakor shunday eslaydi: "O'sha paytda men opera muallifi faqat solfedjio

Uzeyir Hojibeyov o'zining so'nggi sahna asari "Ko'r-o'g'li" operasini 1937 yilda tugatdi. Shu bilan birga, opera Bokuda bosh rolda mashhur Bul-bul ishtirokida sahnalashtirildi.

Aziza Xosilova,
"San'atshunoslik" ta'lim yo'nalishi
4-kurs talabasi

SAN'ATIM BAXTIM

Sirdaryo viloyati va Xitoy Xalq respublikasining Shensi shahri o'rtasidagi hamkorlik munosabatlari nafaqat savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, balki madaniy sohada ham mustahkamlanib bormoqda. Shu munosabat bilan Sirdaryo viloyat filarmoniyasi jamoasi Xitoyning Shensi provinsiyasida bo'lib o'tadigan "Art Exchange Performance Between Shaanxi Province and Central Asian Countries" festivalida ishtirok etish uchun yo'lga chiqdik.

Samolyot aeraportga qo'nishi bilan

Xitoyning xushmanzara tabiati va zamonaviy osmono'par binolari bizni o'ziga maftun qilib qo'ydi. Yuqori darajadagi tayyorgarlik esa bizni yana-da xursand qildi. Aytgancha biz bilan birgalikda "Bahor" va "Tamanno" ansambllari ham borishdi.

Sahna ortida turar ekanmiz bizni o'zgacha hayajon chulg'ab olgan bo'lsa bir tomondan faxr va g'urur hissi bizni yana-da ilhomlantirdi. Birin ketin jamoalarning chiqishlari boshlandi. Biz bu festivalda hammamiz sevib ijro etadigan o'sha mashhur "Andijon polkasi" hamda

xonanda Abdurashid Yo'ldoshevning "O'zbekiston vatanim manim" taronasiga sahnalashtirilgan raqslar bilan qatnashdik. Raqslarimizni baletmeystri Nargiza Toshmuhammedova sahnalashtirdi. Bizning ijrolarimiz tomoshabinlar tomonidan iliq kutib olinib hakamlar tomonidan e'tiroflarga sazovor bo'ldi.

Festivalning so'nggi nomeri ekslyuziv bo'ldi. Xitoylik baletmestor festivalga kelgan barcha ishtirokchilar ishtirokida ajoyib, go'zal raqslar sahnalashtirdi. Bu raqs ham tomoshabinlar olqishiga sazovor bo'ldi. Tadbir so'ngida tashkilotchilar va

hakamlar tomonidan qimmatbaho sovg'alar va maxsus diplom bilan taqdirlandik.

Besh kun davomida festival ishtirokchilarning san'atlaridan, milliy urf odatlaridan xabardor bo'ldik. Festivalning so'nggi kunida tashkilotchilar tomonidan madaniy-tarixiy maskanlarga muzeylariga sayohat uyushtirildi. Biz televideniye orqali ko'rgan askar haykalchalarni jonli tomosha qilish o'zgacha zavq berdi.

Dilfuza Fayzullayeva,
"San'atshunoslik" ta'lim yo'nalishi
2-kurs talabasi

SAN'ATSHUNOS KIM?

larda, o'quv yurtlarida, klublarda, madaniyat uylarida, tashkilot va muassasalarda ma'ruzalar o'qiydi;

sahna formasini yuqori darajada saqlaydi;

o'z mahoratini oshiradi, ma'ruzalar repertuarini kengaytiradi;

ijodiy uyushmalar bilan aloqani davom ettiradi;

San'at yutuqlarini u bilan ishlashning yangi shakllaridan foydalangan holda aholi o'rtasida targ'ib qilish ishlarini olib boradi.

San'atshunoslar qayerda ishlashi kerak?

Bu kasbga talab katta bo'lmagan davrlar allaqachon o'tib ketgan. Rossiyada va butun dunyoda san'at bozori, galereya va muzeylarning rivojlanishiga nazar tashlar ekanmiz, ularning tabiatini qanchalik o'zgartirganini ko'rish mumkin.

Muzeylar. Bugungi kunda muzeylar ko'pchilik zamonaviy odamlarning bo'sh vaqtlarining muhim qismi bo'lgan qiziqarli interaktiv san'at maskanlari hisoblanadi. Ma'rifiy ma'ruzalar, ekskursiyalar va kurslar mashhurlik kasb etmoqda. Bu erda san'atshunoslar menejeri, ekskursiya gid yoki san'atshunos sifatida ishlashi mumkin.

Tadqiqot instituti. Ilmiy-tadqiqot institutida siz san'at ob'ektlarini o'rganishdan tashqari, ularni himoya qilish bilan ham shug'ullanishingiz mumkin. So'nggi paytlarda san'atshunoslarning keskin etishmasligi mavjud bo'lib, ularsiz restavratsiya masalalarini malakali hal qilish mumkin emas.

Galereyalar, auksionlar. Bugungi kunda antiqa galereyalar bilan bog'liq hamma narsa talabga aylanmoqda. San'at asarlarini yig'uvchilar soni ortib bormoqda, shuning uchun ekspertlar va san'at dilerlariga ehtiyoj sezilmoqda.

San'at tadqiqoti va tahlili: San'atshunos san'at asarlarini o'rganadi va ularning tarixiy va madaniy ahamiyatini tushunish, uslubi, texnikasi, kompozitsiyasi va estetik

jihatlarini tahlil qilish uchun tadqiqot olib boradi.

Tarixiy kontekst: San'atshunoslar tarixiy davrlarni, madaniy harakatlarni, ijtimoiy va siyosiy voqealarning san'at rivojiga ta'sirini, san'at va jamiyat o'rtasidagi aloqalarni, uslublar va badiiy harakatlar evolyutsiyasini o'rganadilar.

Tanqidiy tahlil: San'atshunoslar san'atni tanqidiy tahlil qilish usullari va vositalarini ishlab chiqadilar. Ular badiiy asarlarni tahlil qiladilar, ularning sifatini baholaydilar, ramziylikni talqin qiladilar, rassom va kontekstning asarga ta'sirini o'rganadilar.

San'atni saqlash va tarqatish: San'atshunoslar qurilgan merosni saqlash, muzeylar va galereyalarda ishlash, san'at asarlarini kataloglash va tasniflash, ko'rgazmalar tashkil etish va o'quv dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etadilar.

O'qitish: Ko'plab san'atshunoslar universitet va kollejlarda o'qituvchi bo'lib ishlaydilar, ular o'z bilimlarini talabalarga yetkazadilar, ma'ruzalar, seminarlar va amaliy mashg'ulotlar olib boradilar.

Bilim va shaxsiy fazilatlar. San'atshunos umrbod ta'lim olishni o'z ichiga olgan kasb. Asosiy nazariy bilimlar universitet tomonidan beriladi. Ammo ish jarayonida o'z darajangizni oshirishingiz kerak bo'ladi. Chet eldagi san'at asarlarini o'rganish uchun san'atshunos xizmat safarlariga boradi. Shunga ko'ra, u bunday sayohatlarga tayyor bo'lishi va yuqorida aytib o'tganimizdek, chet tilini bilishi kerak.

San'atni tarixdan ajratib o'rganish haqiqatga to'g'ri kelmaydi. Shuning uchun, mutaxassislar jahon tarixi (qadimgi davrlardan hozirgi kungacha) bo'yicha bilimga ega bo'lishi kerak. Albatta, san'at tarixi va madaniyatshunoslikka bevosita aloqador fanlar ham bo'ladi. Talaba san'atshunoslik tarixi, san'at metodologiyasi va tarixi, tasviriy san'at texnikasi, shuningdek, rangtasvir yodgorliklarini restavratsiya qilish bilan batafsil tanishishi zarur. Sanoat amaliyoti saqlash va arxivda

ishlashni, axborot massivlarini tahlil qilish va tizimlashtirishni o'rgatish, katalog va hujjatlar bilan ishlashni o'z ichiga oladi.

Ra'no Karamova,
"San'atshunoslik" ta'lim yo'nalishi
4-kurs talabasi

Bayroq

Bayroq – Vatan degani,
Milliy o'zlik ramzidir.
Ulug' ajdodlar yodi,
O'zbeklikning aslidir.

Ranglari – dil oynasi,
Movi, yashil, qizil, oq
Unda yurtning tarixi,
Mehr ko'zi bilan boq.

Moviylik - obi hayot,
Tiriklik nishonasi
Mustaqil yurt farovon,
Mangulik koshonasi.

Oq rang charog'on yo'llar
Poklik - tinchlik timsoli.
Istiqbol go'zal orzu
Bag'rikenglik misoli.

Yashil rang - navqironlik,
Yangilanish degani.
El niyati duodir,
Yaxshilanish degani.

Qizil chiroqlar - qudrat
Hayot qoni jo'sh urar.
Yulduzchalar jilmayib,
Yangi oy mag'rur turar.

Ramizxon Hojiyev,
"San'atshunoslik" ta'lim yo'nalishi
2-kurs talabasi

TAHRIR HAY'ATI:

Nozim QOSIMOV

Jahongir G'ANIYEV

Rushana SULTONOVA

Hulkar HAMROYEVA

Matluba MURODOVA

Po'lat TASHKENBAYEV

Dildora QOSIMOVA

Shahzoda XUDOYNAZAROVA

Gulasal USMONOVA

BOSH MUHARRIR:

Shuhrat TOXTASINOV

BIZNING MANZIL:

100031, Toshkent shahri,

Yakkasaroy tumani,

Yusuf Xos Hojib ko'chasi,

103-uy.

NASHR UCHUN MAS'UL

To'maris A'ZAM

Gazeta 2018-yil 4-dekabrda O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan 1002-raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

Nashr indeksi: 145
Ofset usulida bosildi.
Qog'oz bichimi A-3

Bosishga topshirish vaqti:

18:00

Bosishga topshirildi: 21:25

Adadi: 200

Bahosi kelishgan narxda.

SAHIFALOVCHI:

Muhammadxon YUSUPOV

Gazeta tahririyat kompyuterida terildi va sahifalandi.

"NISO-POLIGRAF" MCHJ
bosmaxonasida bosildi.
Manzil: Toshkent viloyati,
O'rta Chirchiq tumani,
"Oq ota" MFY, Mash'al qo'rg'oni,
Markaziy ko'chasi, 1-uy.

Buyurtma:

Hajmi 1 bosma taboq.



O'ZBEKISTON DAVLAT
KOREOGRAFIYA AKADEMIYASI
NASHRI